MUALLIF LISONIY SHAXSINING VOQELANISHIDA PARANTEZA VA PARSELLAYATSIYANING O‘RNI XUSUSIDA

Marhabo Umurzoqova,
filologiya fanlari doktori, dotsent
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
umurzakovamarkhabo@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19839852

Annotatsiya. *Muallif pragmatik intensiyasining amalga oshishida sintaktik birliklarning qo‘llanilishi, sintaktik birliklarni to‘g‘ri tanlash muhumdir. Matnning sintaktik tuzilishini, gap qurilishidagi o‘ziga xoslikni tahlil qilish muallif lisoniy shaxsining hissiy, aqliy, intellektual jihatlari haqida tasavvur hosil qilishda yordam beradi. Ushbu maqolada lisoniy shaxs o‘ziga xosligini ta’minlovchi paranteza hamda parsellayatsiya haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *lisoniy shaxs, paranteza, parsellyatsiya, segmentatsiya, pragmatik intensiya.*

Аннотация. *Использование синтаксических единиц, правильный их подбор важны для реализации прагматического замысла автора. Анализ синтаксической структуры текста, особенностей построения предложений помогает сформировать представление об эмоциональных, умственных, интеллектуальных аспектах языковой личности автора. В статье рассматриваются парантеза и парцелляция, обеспечивающие уникальность языковой личности.*

Ключевые слова*: лингвистическое лицо, скобки, сегментация, прагматическое намерение.*

Abstract. *The use of syntactic units and their correct selection are essential for realizing the author’s pragmatic intent. Analysis of the syntactic structure of the text and the specifics of sentence construction helps to develop an understanding of the emotional, mental, and intellectual aspects of the author’s linguistic personality. The article examines parentheses and parcellation, which ensure the uniqueness of the author’s linguistic personality.*

Keywords: *linguistic person, parenthesis, parcellation, segmentation, pragmatic intention.*

Kirish. O‘zbek tilshunosligida kirish, kiritma qurilmalar A.G‘ulomov, G‘.Abdurahmonov, I.Toshaliyev, R.Sayfullayev kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan bo‘lib, ularning semantik-grammatik, lingvopoetik xususiyatlari D.Jamoliddinova tomonidan o‘rganilgan [6]. Parantez quilmalar matnda ifodalanayotgan axborotga qo‘shimcha axborot yuklash bilan murakkablik hosil qiladi. E.A’zam asarlarida parallel nutq – hikoyachining ichki va tashqi nutqi parantez qurilmalar vositasida berilib, voqelikka adresantning munosabatini ifodalashda qo‘l keladi. *Aytishicha, oilada ikkitagina farzand ekanlar – bittagina ukasi bor ekan (demak, meni urolmaydi, akasi bo‘lganda boshqa gap edi); o‘zi yolg‘iz qiz – erka qiz ekan. “Adam nima so‘rasam olib beradilar” (demak, sen ham olib berishing, qozon-tovoqni o‘zing qilishing kerak!); adasi asfalt zavodning direktori ekan (asfalt kerak bo‘lsa, marhamat!)*; *buni qarang, mashinalari ham bor*

ekan — "Yap-yangigina turibdi, hech kim haydamaydi, adam "Dvijeniye katta", deb qo'rqadilar!" (demak, bemalol, asfaltlarning titig'ini chiqarib, bemalol minaverasan!); darvozaxonalarida esa uylarini va o'zlarini qo'riqlaydigan kattakon bir olaparlari bor ekan (demak, u ham kirgan-chiqqanga tarjimayi holini aytib beraveradi!)... (E.A'zam). Bu usulda matn tuzish ma'noning implitsit ifodalanishiga imkon beradi. Keltirilgan matnda so'zlovching nutqi mantiqiy presuppozitsiyaga ishora qiladi, *bittagina ukasi bor ekan* gapidan akasi yo'qligini mantiqan anglash mumkin, ammo muallif uni parantez birikmalar vositasida berib, adresatga maqsadini anglashni osonlashtiradi, shu bilan birga gap zamiridagi kinoya, achchiq istehzoni o'quvchi anglashi uchun ishora qiladi. E.A'zam lisoniy shaxsiga xos bo'lgan yana bir xususiyat kinoya vositasida pragmatik ma'no ifodalash bo'lib, adresatning o'zgalarga va o'ziga qilgan kinoyasi voqelikka, uni o'rab turgan olamga bo'lgan munosabatini, subyektiv bahosini kommunikativ-pragmatik darajada aks ettiradi.

Adabiyotlar sharhi. Rus tilshunosligida jamiyatning ma'lum qatlamiga oid, xususan, siyosatchilar, yozuvchilar, notiqlar, umuman, tilning ifoda imkoniyatlaridan yuksak darajada foydalanadigan til egalariga nisbatan elita lisoniy shaxsi degan terminni qo'llash turg'unlashgan. O.S.Sklyarova tadqiqotida pragmatik munosabatlarga asoslanib, elitani "xulq-atvorning o'zgaruvchanligi, yuqori kognitiv tuzilgan fikrlash, aniq ijtimoiy moslashish qobiliyati va munosabatning ijtimoiy ahamiyatga ega tabiati" bilan ajralib turadigan shaxslar sifatida ko'rib chiqadi hamda bu qatlamga intellektual va ijodkorlik qobiliyati bilan ajralib turadigan yozuvchi Y.G.Vodalazkinni kiritadi [8;30].

Tadqiqot metodologiyasi. E.A'zam elita nutq egasi sifatida turli janrlarda ijod qilgan, uning qalamiga mansub har qanday matnda lisoniy shaxs sifatidagi o'ziga xosliklarni ko'rish mumkin, ammo uni boshqalardan ajratib turuvchi asosiy belgi sifatida esa pragmatik darajadagi lisoniy shaxsga xos belgilar – maqsadning yashirin ifodalanishi, presuppozitsiyaga ishora qiluvchi vositalarning, tagma'noning mavjudligi, subyektiv baho shakllarining qo'llanilishida deb aytish mumkin. Shu o'rinda aytish lozimki, yozuvchi parsellyatli qurilmalardan ham unumli foydalanadi. "Parsellyatsiya butun qismni ikki yoki undan ortiq bo'lakka ajratish bilan o'ziga xoslikni namoyon qiladi, ilova qurilmalar esa gapga qo'shimcha mazmun tirkaydi" [7;9]. Ilova qurilmalarda tayyor qurilmadan keyin qo'shimcha axborot beriladi, parsellyatsiyada esa berilayotgan axborotdan eng muhimi tinglovchining diqqatini ma'lum o'ringa tortish uchun tayyor gap tarkibidan uzib olinadi. Quyidagi misolda E.A'zam lisoniy shaxsiga xos ilova qurilmalar matnga qo'shimcha axborot berish, voqelikni butun tafsilotlari bilan berishda qo'l kelgan. *Parvona bo'lib boshida o'tirgan mehribon kenjasining (hammani xabarlagan shu) aytishicha, "Dunyosidan*

zerikib ketdim, qizim! – deganmish yota-yota. – Etmishdan keyingisining qizig‘i yo‘q ekan o‘zi. (Shu gap farzandga andak botibdi, “Oyingdan keyingi umrning” deyilishini kutgan-da u. Bobomiz esa xiyla errayim: umr masalasiga xotin-xalajni aralashtirgisi kelmaydi.) Men-ku men, ana, Fidelday odam ketdi-ku dunyodan!..” (E.A’zam).

Natijalar. Parsellyatsiya va ilova konstruksiyalarni tadqiq qilgan A.Skovorodnikov parsellyatsiya va ilova konstruksiyalarni quyidagicha farqlaydi: “Ilova konstruksiyalar gapning turg‘un aspektiga xos hodisa sanaladi. Bu grammatik kategoriya o‘ziga xos grammatik ma’no (qo‘shimcha axborot berish ma’nosi) va o‘ziga xos grammatik shakl (maxsus bog‘lovchilar, bog‘lovchi iboralar va boshqa formal vositalar)ga egadir. Shuningdek, bu kategoriya o‘ziga xos strukturaga egaligi bilan asosiy va asosiy bo‘lmagan maydonni belgilashda muhim vosita sanaladi. Parsellyasiya gapning dinamik aspektiga xos hodisa sanaladi. Bu fikrni bo‘laklashga asoslangan stilistik usul bo‘lib, gapni ekspressivlikni ifodalash uchun ikki yoki undan ortiq bo‘laklarga bo‘lishdir” [9;128]. O‘zbek tilida parsellyativ va ilova qurilmalarning sintaktik derivasiyasi haqida tadqiqot olib borgan A.G‘afforov bog‘lovchisiz shakllangan ilovali qurilmalarning ba’zi jihatlari bilan parsellyativ qurilmalarga o‘xshab ketishini, lekin bunday qurilmalar yetakchi gap bilan qorishib keta olmasligini ta’kidlaydi [11;82]. G.N.Akimova ekspressiv qurilma bo‘lishi uchun uslubiy ta’sirchanlikni ifodalash muhimligini, aks holda ularni ekspressiv sintaktik hodisalar sifatida baholab bo‘lmasligini qayd etadi [1;113]. Umuman, ekspressivlikni ifodalovchi sintaktik qurilmalar muallif lisoniy shaxsining o‘ziga xosligini belgilab beruvchi muhim ko‘rsatkich sanaladi.

Ekspressivlikni ta’minlashda, asar tilini jonli xalq tiliga yaqinlashtirishda ko‘p qo‘llaniladigan sintaktik figuralardan yana biri parsellyativ qurilmalar bo‘lib, muallif lisoniy shaxsini belgilovchi muhim ko‘rsatkich sanaladi. Parsellyativ qurilmalarning o‘rganilishi, yondosh hodisalardan farqi, turlari kabi masalalar o‘zbek tilshunosligida Sh.Haydarov tomonidan monografik aspektda tadqiq qilingan [12]. M.Yo‘ldoshev doktorlik dissertasiyasida parsellyatsiya haqida quyidagicha fikr bildiradi: “…parsellyasiyaning asl mohiyati gapdagi muayyan mantiqiy ta’kidli uzvning, bo‘lak yoki bo‘laklarning gapdan tashqariga chiqarib, gapdan keyin keltirib, poetik aktuallashtirishdir” [5;278].

Qirg‘iz tadqiqotchisi T.Tokayev parsellyatning umumiy gap strukturasidagi uslubiy vazifasi ancha yuqoriligini, parsellyatsiyalangan qurilmalarda parsellyat so‘z, so‘z birikmasi shaklida bo‘lishini, ba’zan ikki yoki undan ortiq miqdorda qatnashishi mumkinligi, bunday tuzilmalar parsellyatli kompleks deb atalishini ta’kidlaydi. [10;9]. Kuzatuvlarimiz shuni ko‘rsatdiki, yozuvchilar bunday qurilmalardan asosan

personaj lisoniy shaxsini ifodalashda foydalanadilar, ammo yozuvchi uslubi, lisoniy shaxsini belgilashda ham bunday qurilmalar muhim ahamiyatga egaligini e'tibordan qoldirmaslik zarur. Muallif hikoyachi nutqida parsellyatli qurilmalarning ko'p qo'llanilishi E.A'zam uslubiga xos. *Taom oldidan qo'llarimizni pokizalab olishimiz zarur. Durust. O'zimizdagidek* (E.A'zam).

"Parsellatsiya ham yaxlit sintaktik strukturani bo'laklash va bu bo'lakni asosiy gap oxiriga – ta'kidli pozisiyaga chiqarishdir. Shuning uchun parsellyatsiyani segmentasiyaning alohida bir ko'rinishi tarzida baholash mumkin" [12;48]. Sh.Haydarov segmentasiya va parsellyatsiyaning ekspressiv sintaksisning usullaridan ekanligini ta'kidlab, ular o'rtasidagi farqli va o'xshash jihatlarni quyidagicha asoslaydi: "har ikkala hodisaning ham mohiyati yaxlit sintaktik butunlikni bo'laklab, ikki yoki undan ortiq kommunikativ birlikka ajratishdan iborat; parsellyativ konstruksiya departizasiyalana bilgani kabi segmentlangan konstruksiya ham desegmentasiyalana oladi va bu juftliklar o'rtasida ekspressiya ifodasining mavjudligiga ko'ra variantlilik munosabati yuzaga chiqadi, shunga ko'ra bu variantlar turli lingvopoetik qimmatga ega bo'ladi" [12;51]. Ta'kidlash kerakki, segmentasiyada ham, parsellatsiyada ham muhim sanalgan bo'lak ajratib ko'rsatiladi. Tilshunoslikda ekspressiv sintaksisning usuli sanalgan bu hodisalar haqida turg'unlashgan qarashga asosan, segmentasiya ajratilgan bo'lakni gapning oldiga chiqaradi va u har doim ot xarakteridagi so'zdan iborat bo'lib, bosh kelishikdagi so'z bilan ifodalanadi. Parsellyatsityada esa parsellyat asosiy gapdan keyin kelib, morfologik jihatdan har xil bo'lib, turli gap bo'laklari maqomida bo'ladi.

Parsellyatsiya ham, segmentasiya ham og'zaki nutqqa xos bo'lib, yozma nutqda ular, asosan, tinish belgilari vositasida ifodalanadi. Segmentasiyaga xos bo'lgan asosiy xususiyat uning, asosan, monologik nutqda uchrashi bo'lsa, parsellyatsiya ham monologik nutqda, ham dialogik nutqda uchraydi. Segmentatsiya monologik nutqda asosan muallif lisoniy shaxs nutqida qo'llaniladi. Parsellyatsiya dialogik nutqda personajlarning lisoniy shaxsini shakllantirishda, nutq jarayonida so'zlovchining ruhiy holati – quvonchi, g'azabi, ro'y bergan voqelikdan esankirash, voqelikka shaxsiy munosabatini ifodalash, qo'shimcha axborot berish kabilarni ifoda etishda, asar tilini jonli so'zlashuv tiliga yaqinlashtirishda, badiiy asar tilining o'ziga xosligini ta'minlashda asosiy vosita sifatida ishtirok etadi. Segmentasiyada esa bu holat kuzatilmaydi. Parsellyatsiyadan farqli ravishda segmentasiya so'zlashuv nutqini kitobiy nutqqa yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Segment bo'lakda ham qahramonning ruhiy holatlari bilan bog'liq o'zgarishlar ifoda etiladi, parsellyatsiyadan farqli ravishda segment bo'laklar nutqqa ko'tarinkilik, ulug'vorlik, o'ziga xos ohang, ba'zan sokinlik berishda qo'l keladi. Segmentasiyada segment bo'lak og'zaki nutqda

intonasiya yordamida aniqlanadi, segment bo‘lakdan keyin to‘xtash, bir oz tin olish intonasiyasining yo‘qligi segment bo‘lakni ajratib olish imkonini yo‘qqa chiqaradi. A.Muxtor, U.Hamdam asarlarida segment qurilmalar muallif lisoniy shaxsining individualligini ta’minlashga xizmat qilgan. U.Hamdam lisoniy shaxsi, asrlaridagi lisoniy shaxs tiplari haqida alohida to‘xtalganmiz [13].

Parsellyat ham segment bo‘lak singari nutqiy jarayonda lisoniy shaxsning aytilayotgan fikridagi muhim deb hisoblagan o‘rnini yozma nutqda punktutasion hamda og‘zaki nutqda ohang jihatidan ajratishga xizmat qiladi. Hamda muallif tomonidan mantiqiy urg‘u berilayotgan, boshqa birliklardan ajralib turuvchi “fikrni tortish maydoni”ga aylanadi [2;10]. Buni quyodagi misolda ko‘rishimiz mumkin. *Xabar keldiki, bobomiz chorlayotganmish. Hammani: o‘g‘illarini, qizlarini, nevara-chevarayu boshqa-boshqalarni. (Biz oxirgisiga kiramiz)* (E.A’zam).

Bazaviy qismning fikriy tugallik parsellyat bilan mazmuniy bog‘lanishida kuzatiladi, ya’ni parsellyatsiz asosiy qism mazmunan to‘liq bo‘lmaydi, chunki muallif muhim sanalgan qismni ta’kidlash maqsadida ajratib olgan, usiz gap mazmuni to‘liq anglashilmaydi, shu bilan bir qatorda parsellyat ham sintaktik tugal qurilma sanalmaydi. Parsellyatni hech qiyinchiliksiz gap tarkibidagi o‘rniga tiklash mumkin. Bunda parsellyat gap tarkibida bosh va ikkinchi darajali bo‘laklar maqomida bo‘ladi. “Parsellyatsiya hodisasida fikr ifodasini beruvchi gap yoki jumla soni ko‘paysa, parsellyat yetakchi gap bilan birlashtirilganda, gapning sintaktik strukturasi kengayadi va bir paytning o‘zida uning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi sintaktik munosabat shakli ham ma’lum ma’noda o‘zgaradi” [11;52]. Parsellyatsiya ekspressivlikni ifodalovchi birlik sanalgani uchun ham uni matndan tashqarida tahlil qilib bo‘lmaydi. Bundan tashqari parsellyat matnga xos muhim belgilar (nutqiy ravonlik, butunlik, ekspressivlik ifodalash, axborot berish)ni o‘zida namoyon qiladi. Parsellyatli qurilmalar matnda tema – rematik bo‘linishda asosiy rolni o‘ynaydi hamda parsellyat urg‘u olgan, ta'kidlangan rema sifatida namoyon bo‘ladi [4;7]. Parsellyatli qurilmalar muallif nutqida badiiylikni ta’minlash, ta’kid ma'nosini kuchaytirish xususiyatlariga ega. Ular nutqdagi ma’no nozikliklarini, tinglovchi ilg‘ay olmagan jihatlarni, ekspressivlikni ifodalaydigan muhim vosita sanaladi. *Yo‘lning ikki tomonida-ya, kuppa-kunduzi! Ketayotib avval o‘ng tarafga qarayman: ha, turibdi. Kechagidek, tunov kungidek. Shundoqqina ko‘chaning yoqaginasida. Yonma-yon. Ikki qariya. Ikki soqoldor. Odamzodning mol-mulkigagina emas, joniga ham ega chiqqan ikki zot. Dunyoni buzgan ikki dohiy! Xayriyatki, bor bo‘y-basti bilan emas — yarim beldan pasti yo‘q* (E.A’zam).

Xulosa. Parsellyatli qurilmalardan foydalanish “ritmning o‘zgarishi, tejamkorlik tamoyili, fikrni lo‘nda ifodalash hamda ixcham shaklda mazmunli

axborot yoki emotsionallikni berish bilan bog‘liq” [3;266]. Bu sintaktik takror bilan birgalikda qo‘llanganda ta’sirchanlik yanada oshishini quyidagi misolda ko‘rishimiz mumkin.

Ko‘chalari shovqinli ekan: qadimdagidek.

Bozorlari gavjum ekan: qadimdagidek.

O’yin-kulgi avjida ekan: qadimdagidek (Sh.Bo‘tayev)

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek adabiyoti vakillari lisoniy shaxsining shakllanishida sintaktik qurilmalarning, xususan, ekspressivlikni ifodalovchi birliklarning ahamiyati katta. E.A’zam lisoniy shaxsi ilova qurilmalar hamda parsellyativ qurilmalar vositasida o‘ziga xoslik kasb etsa, Sh.Xolmirazayev, Sh.Bo‘tayev lisoniy shaxsini voqelanishida parsellyativ qurilmalarning ahamiyati katta.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Акимова Г.Н. Развитие конструкций экспрессивного синтаксиса в русском языке // ВЯ. 1981. – №6. – С.109-121.
2. Алексеенко И.В. Парцелляция как грамматическая структура речи (на материале произведений английского языка). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М. 2007. – 25 с.
3. Валгина Н.С. Активные процессы в современном русском языке. – Логос, 2003
4. Добрычева А.А. Парцелляция в прозе С.Довлатова: от предложения к тексту. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Владивосток. 2012. – 20 с.
5. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2009. – 314 б.
6. Жамолиддинова Д. Бадиий нутқда парантез бирликларнинг семантик-грамматик, лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. номз. … дисс. – Тошкент, 2009. – 137 б.
7. Каркошко О.П. Парцелляция: структура, семантика, функция (на материале русского и немецского языков). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Майкоп. 2011. – 25 с.
8. Склярова О.С. Лингвокогнитивный и лингвокультурный аспекты репрезентации элитарной языковой личности писателя в художественном дискурсе. Дисс…канд. фил. наук. – Майкоп, 2021. – 163 с.